

Til – millat ruhi

// 22.10.2021

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/til-millat-ruhi>



“O`zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida 21 oktabr – O`zbek tili bayrami kuni munosabati bilan “Til – millat ruhi” shiori ostida ma`naviy-ma`rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirda “O`zkiyosanoat” AJ markaziy apparati va tarmoq korxonalari xodimlari, O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a`zolari hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o`qituvchilari ishtirok etdi.



Tadbir davomida so`zga chiqqan filologiya fanlari nomzodi, dotsent Nargiza Ahmedova 1989 yilning 21 oktabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash bo`yicha “Davlat tili to`g`risida”gi Qonun qabul qilinib, unga ko`ra O`zbek tiliga - Davlat tili maqomi berilganligi, “O`zbek tili bayrami kunini belgilash to`g`risida” 2020 yil 10 aprelda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasi bilan 21 oktabr sanasi O`zbek tili bayrami kuni etib belgilanganligini ta`kidlab o`tdi.

Shuningdek, tizim korxonalari tomonidan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g`oyasi asosida mamlakatimizdagi yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlari mazmun-mohiyatini targ`ib qilish orqali tizim xodimlarida tashabbuskorlik va daxldorlik hissini kuchaytirish, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonuni ijrosini ta`minlash hamda O`zbek tili bayrami kuni bayramini keng nishonlash maqsadida ma`naviy-ma`rifiy tadbirlar o`tkazildi.

“O`zkiyosanoat” AJ Matbuot xizmati